

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

PO‘LATOV G‘OLIBJON MURODOVICH

**GAZNI QAYTA ISHLASH ZAVODINING NORDON GAZLAR
TARKIBIDAGI VODOROD SULFIDNI UTILIZATSIYA QILISH ORQALI
NATRIY SULFID OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08- Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Po‘latov G‘olibjon Murodovich

Gazni qayta ishlash zavodining nordon gazlar tarkibidagi vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid olish texnologiyasini ishlab chiqish3

Пулатов Голибжон Муродович

Разработка технологии получения сульфида натрия путем утилизации сероводорода из кислых газов газоперерабатывающего завода21

Pulatov Golibjon Murodovich

Development of a technology for obtaining sodium sulfide through the utilization of hydrogen sulfide from acid gases of a gas processing plant39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

PO‘LATOV G‘OLIBJON MURODOVICH

**GAZNI QAYTA ISHLASH ZAVODINING NORDON GAZLAR
TARKIBIDAGI VODOROD SULFIDNI UTILIZATSIYA QILISH ORQALI
NATRIY SULFID OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08- Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5819 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Farxod Maxkamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adizov Bobirjon Zamirovich
texnika fanlari doktori, professor

To'rayev Tolib Bozorovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya ishi himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning «27» noyabr 2025 yil soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90; ye-mail: ionx@academy.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «14» noyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «14» noyabrdagi 20-raqamli reestr bayonnomasi).



B.S. Zakirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d. prof.

D.S. Salixanova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.d. prof.

I.D. Eshmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda gazni qayta ishlash korxonalaridan ajralib chiqayotgan nordon gazlarni (asosan H_2S va CO_2) qayta ishlash masalasi ekologik xavfsizlik, iqlim o'zgarishi va resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga vodorod sulfidni (H_2S) qayta ishlash natijasida natriy sulfid (Na_2S) olish texnologiyasi tobora dolzarb yo'nalishga aylanmoqda. H_2S dan to'g'ridan-to'g'ri Na_2S sintez qilish jarayoni energiya tejamkor, kam chiqindili va ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratish imkonini beradi. Ushbu zararli gazlarni qayta ishlash va undan foydali mahsulotlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Dunyoda vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali ekologik xavfsizlikni oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun H_2S ni qayta ishlashning yangi katalitik va absorbsiya asosidagi usullari ishlab chiqilib, nordon gazlardan Na_2S olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada natriy sulfid (Na_2S) olish texnologiyasining ishlab chiqilishi bu yo'nalishda mavjud bo'lgan ekologik muammolarni hal etish bilan birga, yangi mahsulot ishlab chiqarish orqali sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Natriy sulfid, ayniqsa, rudalarni boyitishda samarali flotoreagent sifatida qo'llanishi bilan mineral xomashyo qazib olish va qayta ishlashning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy jihatdan mustahkamlash xususiyatlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham neft-gaz va kimyo sanoatidagi chiqindilarni utilizatsiya qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha izchil ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida "yuqori texnologik qayta ishlash tarmoqlarini, birinchi navbatda, mahalliy xomashyo va yirik sanoat chiqindilarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish"ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan¹. Bu borada, gazni qayta ishlash zavodlarida hosil bo'layotgan nordon gazlardagi vodorod sulfidni samarali utilizatsiya qilish texnologiyalarini yaratish orqali mahalliy sanoatni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda. Vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda uni rudalarni boyitish jarayonlarida qo'llash amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-son «2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi Farmon

60 sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi”, 2022 yil 7 iyuldagi PQ-307-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora tadbirlar to‘g‘risida”, qarorlari xamda mazkur yo‘nalishga tegishli bo‘lgan boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya” va IV. «Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat chiqindilari asosida natriy sulfid (Na_2S) ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha dunyoda bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Jeyms Manganaro, Jianzhong Xia, Álvaro Peres Salado, Akiba Ivaio, Darril Mamrosh, Fatema Bashipour, P.A. Maschwitz, Bross G., Myers R.D., Fan Yongtao, Yue Yang, Baoping Niu, Zhe Liu, Jianming Dan va Jinyu Wang singari tadqiqotchilar o‘z ishlarida vodorod sulfid va boshqa oltingugurtli chiqindilarni qayta ishlash orqali natriy sulfid olishning kimyoviy va texnologik mexanizmlarini o‘rganganlar. Ularning ishlari asosan gaz fazasida H_2S ni absorbsiyalash, katalitik qaytarish va regeneratsion sikl tizimlarini yaratish, shuningdek energiya tejamkor va ekologik xavfsiz jarayonlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

O‘zbekistonda neft va gaz kimyosi hamda texnologiyasi yo‘nalishida qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, sohaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Jumladan, K.S. Axmedov, A.A. Agzamxodjayev, M.P. Yunusov, F.M. Yusupov, S.E. Nurmonov, B.Z. Adizov, I.D. Eshmetov, D.J. Jumaeva va boshqa olimlarning tadqiqotlari neft va gazni qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, yangi katalitik tizimlar va kimyoviy texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Neft-gaz sanoati korxonalarining ekologik holatini yaxshilash, chiqindi gazlarni zararsizlantirish hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish masalalari bo‘yicha B.S. Zakirov, D.S. Salixanova, Z.A. Smanova, D.A. Gafurova, A.B. Ibragimov, Sh.M. Saydaxmedov, B.N. Xamidov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, nordon gazlar tarkibidagi vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid olish texnologiyasi ekologik, iqtisodiy va texnologik afzal hisoblanib ushbu texnologiyani ishlab chiqish va olingan Na_2S metall rudalarini flotatsion boyitishda samarali reagent sifatida qo‘llanilib, ajratish jarayonlarining unumdorligini oshiradi, vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid olish bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish zarur bo‘ladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy tadqiqot rejalariga muvofiq 13/09-2021/NS “MGQIZ da natriy sulfid ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi xo‘jalik shartnoma doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gazni qayta ishlash zavodlarida hosil bo'ladigan nordon gazlar tarkibidagi vodorod sulfid (H_2S) ni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid (Na_2S) olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va rudalarni boyitish jarayonida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gazni qayta ishlash zavodlarida hosil bo'ladigan nordon gazlar tarkibidagi vodorod sulfid (H_2S) ni fizik-kimyoviy xossalarini hamda tarkibiy ifloslantiruvchilarini aniqlash;

vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid (Na_2S) olishning reaksiya sharoitlarining (harorat, bosim, pH, konsentratsiya) maqbul sharoitlarini aniqlash;

vodorod sulfid va natriy gidroksid ishtirokidagi asosiy kimyoviy reaksiyalarni laboratoriya sharoitida tadqiq qilish va sinov natijalari asosida texnologik jarayonni hisoblash;

olingan natriy sulfidning tarkibi, kristall tuzilmasi va xossalarini zamonaviy analitik usullar (XRD, FTIR, AAS, SEM) yordamida tahlil qilish;

sanoat miqyosida qo'llanilishi mumkin bo'lgan Na_2S ishlab chiqarish texnologik sxemasini ishlab chiqish va iqtisodiy baholash;

Na_2S mahsulotining ruda boyitish jarayonida kollektor yoki flotatsiya faol modda sifatida qo'llanish samaradorligini eksperimental tadqiqodlar usulda aniqlash;

taklif etilayotgan texnologiyaning ekologik afzalliklarini va ishlab chiqarishda chiqindilar miqdorini kamaytirishdagi rolini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mahalliy xomashyo komponentlari - nordon gaz, vodorod sulfid, natriy gidroksidi, kalsiy gidroksidi, natriy sulfid olingan.

Tadqiqotning predmeti nordon gazni karbonat angidrid va vodorod sulfidiga ajratishning kimyoviy va texnologik jarayonlari, vodorod sulfidining absorbsiyasi, kinetikasi, xom ashyo va tajriba namunalarning fizik-kimyoviy tavsiflarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zamonaviy fizik-kimyoviy (kimyoviy-analitik, rentgen-difraksiya, mikroskopik, IQ spektroskopik, elektron mikroskopik) tahlillar va an'anaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$Ca(OH)_2$ orqali CO_2 ni ajratish va $NaOH$ orqali H_2S ni yutib, Na_2S olish reaksiyasini o'z ichiga olgan sanoat sharoitida natriy sulfid olishning ikki bosqichli texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

30 % li $NaOH$ eritmasidan foydalangan holda $50^\circ C$ haroratda, $pH \approx 13-14$ oralig'ida 60 daqiqalik ishlov berish jarayoni natijasida Na_2S hosil bo'lishining maqbul sharoitlari aniqlanishi natijasida Na_2S hosil bo'lish darajasini 75,9 % gacha yetkazish ilmiy isbotlangan;

sintez qilingan Na_2S namunalarning kristall tuzilmasi (XRD), funksional guruhlari (FTIR) va molekulyar xususiyatlari (XRF, SEM-EDS) o'rganilib, Na_2S ning asosiy fazasi aniqlangan hamda eritmani bug'latish jarayonining issiqlik balansi ($Q \approx 1850-1900$ kJ/kg) va texnologik hisob-kitoblari ishlab chiqilgan;

flotatsiyada NS-14 markali Na₂S reagentining samaradorligi standart sanoat Na₂S namunasi bilan taqqoslanganda, mis (Cu) ajralish samaradorligi mos ravishda 93,01 % (NS-14) va 93,88 % (standart), qo‘rg‘oshin (Pb) uchun 92,08 % (NS-14) va 93,03 % (standart), rux (Zn) konsentratidagi miqdor esa 11,69 % (NS-14) va 10,41 % (standart) ni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nordon gazlar tarkibidagi vodorod sulfid (H₂S) va karbonat angidrid (CO₂) larini samarali ajratishda absorbentlardan foydalanishga asoslangan texnologik sxema ishlab chiqilgan;

natriy sulfid olish uchun texnologiya yaratilib u asosida pilot va sanoat qurilmasi ishlab chiqilgan;

jarayon bo‘yicha ilmiy-texnik hujjatlar jumladan, texnologik reglament va tashkilot standarti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijalari ishlab chiqilgan texnologiyalarni sanoat ishlab chiqarishi sharoitidagi qurilmalarda sinovdan o‘tkazilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Muborak gazni qayta ishlash zavodidan olingan tabiiy gazni tozalash chiqindilari bo‘lgan nordon gazlardan natriy sulfid olish uchun xom ashyo sifatida foydalanish orqali nordon gazlar tarkibidan vodorod sulfidining absorbsiyasi, jarayondagi kolloid xususiyatlari, komponentlarning o‘zaro ta’siri va jarayonda sodir bo‘ladigan reaksiyalar orqali natriy sulfid olish uchun ilmiy asos yaratganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mahalliy xomashyodan import o‘rnini bosuvchi maxsulotini olish, tannarxni kamaytirish va natriy sulfidini sanoat tarmoqlarida qo‘llash, hududning ekologik holatini yaxshilash va tajriba namunalarini yaratish orqali sanoat ishlab chiqarishga tavsiya etilib, ularning olinish texnologiyasi va maqbul texnologik me‘yorlarini ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xomashyo asosidagi noorganik sorbentlar bilan nordon gazlar va vodorod sulfidini absorbsiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

metallurgiya, yengil, kimyo sanoatlarida foydalaniladigan natriy sulfid uchun texnik shart “O‘zbekneftgaz” AJ Muborak GQIZ bilan kelishilgan va O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (TU 23766064-13:2021). Mazkur texnik shart mahsulotning sifati va texnologik jarayonini nazorat qilish imkonini bergan;

gazni qayta ishlash zavodlarida hosil bo‘ladigan nordon gazlar tarkibidagi vodorod sulfid (H₂S)dan natriy sulfid olishning ishlab chiqarish texnologiyasi “Muborak GQIZ” unitar shu‘ba korxonasiining istiqbolli ishlanmalar ro‘yxatiga kiritilgan ("O‘zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati ning 2025-yil 04-iyundagi №03-18-8-555 sonli ma'lumotnomasi) natijada, mazkur texnologiyani ishlab chiqarish sharoitida amaliyotga tatbiq etish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzuci bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 ta xorijiy va 3 ta respublika ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid olish texnologiyalarining hozirgi holati va ilmiy-tadqiqot yondashuvlari**» deb nomlangan birinchi bobida vodorod sulfid gazining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, uni foydali mahsulotga aylantirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratish bilan bog'liq dolzarb muammolarni yechishning amaliy yondashuvi va nazariy asoslari keltirilgan bo'lib, xususan natriy sulfid olishning mavjud sanoat usullari, ularning samaradorligi, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari borasidagi ilmiy-texnik adabiyotlar, patentlar sharhi va jahon amaliyoti tajribalari yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Xom ashyo bazasining tahlili va eksperimental tadqiqot usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ishida foydalanilgan Davlat Standartlariga muvofiq bo'lgan an'anaviy va zamonaviy tadqiqot usullari keltirilgan bo'lib, ular yordamida Na₂S namunalarning fizik, kimyoviy, mexanik, katalitik va adsorbsion xossalari, shuningdek, kimyoviy tarkibi aniqlangan. Ushbu bobda Na₂S namunalarni olish usullari va texnologiyasi, unda foydalanilgan xomashyo — vodorod sulfid gazi va tegishli yordamchi reagentlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Nordon gazlardan natriy sulfid olish: sintez, strukturaviy va fizik-kimyoviy tahlil**» deb nomlangan uchinchi bobida vodorod sulfidni utilizatsiya qilish asosida Na₂S sintez qilish texnologiyasi, uni laboratoriya sharoitida olishning texnologik rejimlari, hamda sintez qilingan mahsulotning fizik-kimyoviy va morfologik xossalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishida reaksiya mahsuloti sifatida aynan natriy sulfid (Na₂S) ustun hosil bo'lishi tajriba natijalari bilan asoslab berildi.



1-rasm. NaHS va Na₂S hosil bo'lishining ishqor konsentratsiyasiga bog'liqligi

Xususan, 30% li ishqoriy muhitda, 120°C haroratda 1,5 soat davomida olib borilgan bug'latish jarayonida NaHS molekulari qolgan NaOH bilan to'liq reaksiyaga kirishib, Na₂S ga aylangan (1-rasm). Bunday sharoitda pH > 12 bo'lib, yuqori ishqoriy muhit va harorat jarayonning kinetikasini tezlashtiradi hamda Na₂S ni asosiy mahsulot sifatida ajratib olish imkonini beradi.

Laboratoriya sharoitida Na₂S sintezi bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari (1-jadval) shuni ko'rsatadiki, vodorod sulfid (H₂S) gazini rux sulfidi (ZnS) va kaltsiy karbonat (CaCO₃) aralashmasidan olish samaradorligi, an'anaviy CaSO₄ + koks (C) sistemasiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan.


NaOH konsentratsiyasi 40% ga yetkazilgan holatda, ZnS manbali sistemada 90% gacha Na₂S unumi kuzatilgan, bu esa CaSO₄ + C asosidagi eng yuqori ko'rsatkichdan (70%) 20% ga yuqoridir (1-jadval). Ushbu farq ZnS + HCl reaksiyasida hosil bo'ladigan H₂S miqdorining ko'pligi bilan izohlanadi.

1-jadval

Laboratoriya sharoitida turli usullarda Na₂S olishning ilmiy tahlili


№	H ₂ S manbai	Qo'shimcha reagentlar	NaOH, C(%)	Ca(OH) ₂ miqdori (g)	HCl eritmasi (g, 25%)	Na ₂ S unumi (%)
1	CaSO ₄ + C	26 g koks, 25 g CaCO ₃	20	72.78	215	60
2	CaSO ₄ + C	26 g koks, 25 g CaCO ₃	25	72.78	215	70
3	ZnS + CaCO ₃	36 g CaCO ₃	30	135	316	80
4	ZnS + CaCO ₃	36 g CaCO ₃	35	135	316	85
5	ZnS + CaCO ₃	36 g CaCO ₃	40	135	316	90

NS-8, NS-12 va NS-14 namunalari yuzasining SEM (skanirlovchi elektron mikroskopiya) tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki (2-rasm), sintez va quritish sharoitlari Na₂S kristallarining morfologiyasi va strukturaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. NS-8 namunasi yuzasi notekis va yuqori g'ovaklikka ega bo'lib, kristallanishning to'liq yakunlanmaganligi va quritish jarayonining yetarli darajada olib borilmaganligini bildiradi.




2-rasm. Namunalarning SEM-EDS tasviri

Element tarkibi bo'yicha ushbu namunada oltingugurt 18,81 mass %, natriy 29,54 mass % va kislorod 37,24 mass % ni tashkil etgan. Boshqa tomondan, NS-12 va ayniqsa NS-14 namunalarda silliq, zich va to'liq kristallangan yuzalar kuzatilib, NS-14 namunasi strukturasi yuqori sifatli sintez sharoitida shakllanganligi aniqlangan.




3-rasm. Na₂S namunalari massa ulushi bilan taqqoslash

Tadqiqot natijalariga ko'ra, NS-14 namunasi boshqa sintezlangan Na₂S namunalari orasida eng maqbul morfologik va tarkibiy xususiyatlarga ega bo'lib, uning yuzasi silliq, zich kristall struktura (~50–100 μm) va yuqori zarracha tartibiga ega. SEM tahliliga ko'ra (3-rasm), NS-14 tarkibida Na – 40,02 mass %, S – 24,43 mass %, O – 22,12 mass % aniqlangan bo'lib, bu yuqori natriy sulfid kontsentratsiyasi va past oksidlanish darajasini bildiradi. Optimal sharoitda – 120 °C haroratda 1 soat davomida bug'latish orqali olinishi bu namunaning strukturaviy yetuklik darajasini oshirgan. NS-14 namunasi tarkibi nazariy Na₂S qiymatlariga yaqin bo'lgani uchun u sanoat miqyosida flotatsiya reagentlari sifatida qo'llash uchun eng maqbul texnologik yechim hisoblanadi. NS-14 namunasi tarkibidagi past kislorod miqdori (22,12 mass %) uning oksidlanish darajasi pastligini ko'rsatadi, bu esa mahsulotning barqarorligi va uzoq muddatli saqlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Xususan, Na₂S·5H₂O namunasi yuzasida Na₂S·9H₂O fazasiga xos nozik kristallar ham aniqlangan bo'lib, bu 50 °C dan past haroratda qisman kristallanish natijasida ikki fazali struktura shakllanganini bildiradi.



4-rasm. NS-12 namunasini XRF (X-ray fluorescence) usulida tahlili

XRF (X-ray fluorescence) spektrining Mid-Z va High-Z sohalarida aniqlangan Ti, Fe, Cu, Zn, Pb va Hg kabi elementlarning cho'qqilari (4-rasm) sintez jarayonida qo'llanilgan kimyoviy aralashmalar yoki qurilma detektorida mavjud bo'lgan metall izlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu elementlarning past darajadagi cho'qqilari ifloslanish yoki texnologik jarayondagi aralashmalar natijasi sifatida talqin qilinadi.



5-rasm. NS-14 namunasini XRF (X-ray fluorescence) usulida tahlili

Ilmiy asosda baholanganda, ~2.3 keV da qayd etilgan S-K α cho‘qqisi Na₂S tarkibidagi oltingugurtning mavjudligini ishonchli tasdiqlaydi. Natriy (Na) signalining sustligi atom raqamining kichikligi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, S elementining spektrda yaqqol aks etishi Na₂S fazasining mavjudligini tahliliy jihatdan asoslaydi (7-rasm).XRF (X-ray fluorescence) tahlili natijalariga ko‘ra, namunada Na (natriy) va S (oltingugurt) elementlari spektrda kuchli va yaqqol cho‘qqilar bilan aniqlangan bo‘lib, bu holat sintez qilingan birikmaning aynan Na₂S ekanligini ishonchli tasdiqlaydi. Ushbu asosiy fazaviy tarkib XRF (X-ray fluorescence) natijalari bilan bir qatorda XRD va SEM tahlillari orqali ham o‘zaro mos va bir-birini to‘ldiruvchi tarzda aniqlangan. Spektrda yuqori atom raqamiga ega Fe, Mo, Ag, Ba va Nd kabi elementlarning mavjudligi esa, sinov muhiti yoki namunani tayyorlashda ishlatilgan uskunalar, substratlar yoki himoya qoplamalardan kelib chiqqan fon ifodasi sifatida baholanadi (6-rasm).




NS-12 marka

NS-08 marka


NS-14 marka

6-rasm. Na₂S namunalarining yorug‘lik mikroskopidan olingan tasviri

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natriy sulfid kristallarining morfologiyasi va geometrik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Yorug‘lik mikroskopiyasi orqali olingan tasvirlar asosida (6-rasm)




a. Reaksiya unumining haroratga bog‘liqligi



b. Reaksiya unumining vaqtga bog‘liqligi


7-rasm. Na₂S kristallarining hosil bo‘lish unumining haroratga bog‘liqligi

Na₂S kristallari taxminan 1 mm o'lchamdagi, tartibli tuzilishga ega bo'lgan erkin oqadigan kristallar ko'rinishida shakllangani qayd etildi. Ularning burchakli va silliqshatirilgan qirralari, shuningdek, bir-biridan farq qiluvchi simmetrik geometrik shakllari kristallanish sharoitlariga sezgirlikni tasdiqlaydi. Olingan natijalarga binoan, kristallar namligi pasaygani sari Na₂S mahsulotining chiqishi oshgani kuzatiladi. Xususan, kristallar namligi 18% dan 10% gacha kamayganida, chiqish 82% dan 91% gacha ko'tarilgan (7a – 7.b-rasm). Bu esa mahsulotning tozaligi va konsentratsiyasi yaxshilanganini ko'rsatadi. Shu sababli, optimal bug'lantirish haroratini tanlash Na₂S kristallarini samarali olishda muhim ahamiyatga ega.



8-rasm. Na₂S namunalarining FTIR spektr olingan tasviri


Sintez qilingan NS-12 va NS-14 markali natriy sulfid (Na₂S·xH₂O) namunalarining FTIR spektrlari ularning gidratlangan va murakkab funksional tarkibga ega tuzlar ekanini ishonchli tasdiqlaydi. Har ikkala namunada 3132 cm⁻¹ atrofidagi keng cho'qqining mavjudligi (NS-12: 3131.94 cm⁻¹; NS-14: 3132.91 cm⁻¹) ularning tarkibida –OH guruhlar mavjudligini va moddalarning suv bilan bog'langan holatda ekanini bildiradi. 2162 cm⁻¹ (C≡C yoki C≡N) va 1423–1428 cm⁻¹ (S=O, CH₂) atrofidagi chiziqlar esa tarkibda uchli bog'lar va oltingugurtli funksional guruhlarining mavjudligini ko'rsatadi.



9-rasm Na₂Sning IK tahlili (NS-14 markali Na₂S)

Shuningdek, 598–466 cm^{-1} diapazonida kuzatilgan past chastotali cho‘qqilar Na–S metall-sulfid bog‘larini tasdiqlaydi. Ushbu vibratsion chiziqlarning o‘xshashligi NS-12 va NS-14 namunalarning asosiy fazaviy va funksional tarkibi o‘xshash bo‘lgan, yuqori kristallanish darajasi bilan hosil bo‘lgan $\text{Na}_2\text{S}\cdot x\text{H}_2\text{O}$ tuzlariga mansubligini bildiradi (8-9-rasm).

Dissertatsiyaning “**Vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali sanoat sharoitida natriy sulfid olish texnologiyasi va rudalarni boyitishda qo‘llashning ilmiy tadqiqi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobi tarkibida sanoat sharoitida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar hamda ularning tasnifi ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Jumladan, vodorod sulfidi va karbonat anhidrid aralashmasini tarkibiy komponentlarga ajratish, asosiy mahsulot – natriy sulfidni sintez qilish hamda uni kristall holga keltirish bosqichlari amaliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan.



10-rasm. Kislotali gazlardan natriy sulfid olishga mo‘ljallangan pilot qurilmaning texnologik sxemasi. 1 – 2 – absorber; 3 – elektrovigatel; 4 – bug‘latish qurilmasi.

Tajribada birinchi bosqichda CO_2 ning $\text{Ca}(\text{OH})_2$ eritmasida cho‘ktirilishi orqali H_2S ajratib olindi. Keyingi bosqichda ajralgan H_2S gazi 30% li NaOH eritmasi bilan reaksiyaga kirishib, natriy sulfid hosil bo‘ldi (10-rasm). Yakuniy uchinchi bosqichda esa, hosil bo‘lgan Na_2S eritmasi 120°C haroratda 2 soat davomida bug‘latilib, kristall holga keltirildi. Mazkur texnologik yondashuv gazni chuqur tozalash, qayta ishlash va mahsulot sifatini nazorat qilish imkonini beradi hamda flotatsion boyitish texnologiyalarida qo‘llash uchun sifatli Na_2S olishga yo‘naltirilgan.



11-rasm. Muborak gazni qayta ishlash zavodida o‘rnatilgan pilot (yarim sanoat) usulida natriy sulfid olish uchun mo‘ljallangan tajriba qurilmasi


Bug‘latish bosqichida natriy sulfid eritmasidan suv ajralib chiqib, eritma bosqichma-bosqich zichlashadi va kristall Na_2S hosil bo‘ladi. Kristallashgan mahsulot $120\text{ }^\circ\text{C}$ haroratda 1 soat davomida quritilib, so‘ngra sovutiladi va maydalanadi (10-11-rasm). Tayyor mahsulot sanoat talablariga javob beradigan holatda yig‘iladi. Mazkur texnologik jarayonlarning aniq parametrlarini nazorat qilish 2-jadvalda aks ettirilgan bo‘lib, u yerda gazning sarfi ($10\text{ m}^3/\text{soat}$), harorat ($40\text{--}70\text{ }^\circ\text{C}$), eritma konsentratsiyasi (20%) va gazning oqim tezligi ($0,1\text{ m}^3/\text{s}$) kabi asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan. Ushbu parametrlar natriy sulfidning barqaror va sifatli sintezini ta'minlaydi.

2-jadval

Natriy sulfid olish uchun texnologik rejim

№	Jarayon bosqichi nomi	Nazorat qilinadigan parametrlar (birlik)	Min	Mak
1	Nordon gazni berish	Sarfi, m^3/soat	10	20
2	Kiruvchi gaz harorati	Harorat, $^\circ\text{C}$	40	50
3	$\text{Ca}(\text{OH})_2$ eritmasi konsentratsiyasi	%	30	30
4	NaOH eritmasi konsentratsiyasi	%	30	30
5	Nordon gazning tezligi	m^3/s		
6	To‘yintirilgan absorbent harorati	$^\circ\text{C}$	70	80

Ishlab chiqarish quvvati 10 tonna/kun bo‘lgan pilot qurilma Muborak gazni qayta ishlash zavodining 17-sexiga yaqin hududda joylashtirilgan bo‘lib, asosiy xomashyo – oltingugurtli nordon gaz 14-sexdan olinadi.



12-rasm. Sanoat sharoitida natriy sulfid ishlab chiqarish liniyasi sxemasi. 1– absorber; 2 – aralastirgich; 3 – moyni qizdirish uchun pech; 4 – absorber; 5 – lyuk; 6 – gazsimon mahsulotlar chiqarish moslamasi; 7 – monometr; 8 – lyuk; 9 – pichoqlar, 10-separator, 11-12 - suv rezeuarlari, 13- reduktor, 14- vakuum nasos, 15- lyuk..

12-13-rasmda keltirilgan sanoat sxemasi asosida gaz fazasi va suyuq fazaning samarali kontaktini ta'minlaydigan gorizontallik reaktor, vakuum nasosi, aralastirgich va nazorat-klapanlar tizimi ko'zda tutilgan. Bunday yondashuv texnologiyaniq iqtisodiy jihatdan arzon, ekologik xavfsiz va lokal xomashyoga asoslangan holda samarali ishlashiga imkon yaratadi.



13-rasm. Natriy sulfid ishlab chiqarishga mo'ljallangan sanoat qurilmasi

ZPG-3000 markali shnekli vakuumli quritgichdan foydalangan holda sintez qilingan NS-14 markali natriy sulfid namunasi oksidlangan qo'rg'oshin-rux rudalarini flotatsion boyitishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Eksperimental reagent 61,11–64,76 % Na_2S tarkibiga ega bo'lib, Cu-Pb konsentratida ruxning ajralishi 64,76 %, misniki 93,01 % va qo'rg'oshinniki 92,08 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar standart Na_2S bilan taqqoslanganda (mis uchun 93,88 %) deyarli teng natija bergan. Biroq NS-14 reagentidan foydalanganda konsentrat tarkibidagi mis miqdori 1,87 % bo'lib, bu standart Na_2S (1,69 %) ga nisbatan yuqoriroq natijani ko'rsatdi. Ushbu farq NS-14 reagentining misning ajralish darajasini

saqlagan holda, uning konsentratdagi nisbiy miqdorini oshirish qobiliyatiga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

3-jadval

"Xandiza" konining rudasi asosida NS-14 namunasi bilan ochiq siklda olib borilgan laboratoriya tajribasi natijalari

Mahsulot nomi	Chiqish, %	Tarkib, %			Ajralish, %			Tajriba sharoitlari
		Cu	Zn	Pb	Cu	Zn	Pb	
Cu-Pb qora konsentrat	21,8	1,69	10,41	6,38	93,88	65,37	93,03	Standart (Na ₂ S)
Cu-Pb flotatsiya qoldig'i	78,62	0,03	1,50	0,13	6,12	34,63	6,97	
Asosiy ruda	100	0,39	3,41	1,47	100	100	100	
Cu-Pb qora konsentrat	20,93	1,87	11,69	7,06	93,01	65,08	92,08	NS-14 markali (Na ₂ S)
Cu-Pb flotatsiya qoldig'i	79,07	0,045	1,66	0,19	6,99	34,92	7,92	
Asosiy ruda	100	0,37	3,45	1,45	100	100	100	

NS-14 markali natriy sulfid reagentining Cu-Pb rudalarini flotatsiya yo'li bilan boyitishda qo'llanilishi mahsulot sifatini sezilarli darajada oshiradi. Jumladan, NS-14 reagentidan foydalangan holda olingan Cu-Pb konsentratida rux (Zn) miqdori 11,69 % bo'lib, bu standart Na₂S reagentiga (10,41 %) nisbatan yuqoriroqdir. Shunga qaramay, ruxning ajratish darajasi har ikki reagent uchun deyarli bir xil — 65,08 % (NS-14) va 65,37 % (standart) (3-jadval). Bu esa NS-14 reagentining konsentrat sifati bo'yicha afzalligi borligini bildiradi. Qo'rg'oshin (Pb) ajratishda esa NS-14 reagentining ajratish darajasi 92,08 % bo'lib, bu standart reagentga (93,03 %) nisbatan 0,95 % ga kam, ammo konsentrat tarkibidagi qo'rg'oshin miqdori NS-14 da yuqoriroq — 7,06 % (standartda esa 6,38 %). Mis (Cu) ajratilishida NS-14 93,01 % samaradorlik ko'rsatgan bo'lib, bu ko'rsatkich standart reagentga juda yaqin (93,88 %). Umuman olganda, NS-14 reagentining afzalligi sifatli konsentrat olishda namoyon bo'lib, u sanoat miqyosida samarali qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi.

4-jadval

Issiqlik balansining taqqoslash tahlili

№	Issiqlik turi	Miqdori (kJ)	Ulush (%)	Izoh
1	Kiruvchi issiqlik (Q _k)	1 290 499,2	100%	Jami kiruvchi issiqlik.
2	Chiquvchi issiqlik (Q _{ch})	7 127 912,5	552,4%	Jami chiquvchi issiqlik.
3	Issiqlik balans farqi (ΔQ)	-5 837 413,3	-	Issiqlik farqi.
4	Samaradorlik koeffitsienti (η)	18,1%	-	$\eta = (Q_k/Q_{ch}) \times 100\%$.

Shuningdek, texnologik jarayonning issiqlik balansini tahlil qilish natijasida, kiruvchi issiqlik miqdori 1 290 499,2 kJ ni tashkil etgan bo'lsa, chiquvchi issiqlik 7 127 912,5 kJ ga yetgan va bu 552,4 % nisbatda ortiqcha issiqlik chiqishini

anglatadi. Issiqlik balansidagi farq $\Delta Q = -5\,837\,413,3$ kJ bo‘lib, bu energetik tizimdagi issiqlik yo‘qotishlarning yuqoriligini bildiradi (4-jadval). Issiqlik samaradorlik koeffitsienti atigi 18,1 % bo‘lib, bu texnologik qurilmalarda issiqlikni saqlash va qayta ishlatish imkoniyatlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

5-jadval

Issiqlik manbalarining taqsimlanishi

№	Issiqlik manbai	Hisoblash formulasi/ma'lumotlar	Miqdor (kJ)	Ulush (%)
1	Texnologik bug‘	$Q_0 = m \cdot r$	1 250 463	96,9%
2	Gaz aralashmalari issiqligi	$Q_1 = m \cdot C \cdot \Delta T$	505,2	0,04%
3	Kimyoviy reaksiyalar issiqligi	$Q_c = 39,25 \times 1020$	40 000	3,1%
	Jami	-	1 290 499,2	100%

Olib borilgan texnik-iqtisodiy tahlillar natriy sulfid ishlab chiqarish jarayonining energiya va moliyaviy samaradorligini aniq ko‘rsatmoqda. Umumiy issiqlik sarfi 1 290 499,2 kJ ni tashkil etib, uning 96,9 % (1 250 463 kJ) texnologik bug‘ga, 3,1 % (40 000 kJ) kimyoviy reaksiya issiqligiga va atigi 0,04 % (505,2 kJ) gaz aralashmalari issiqligiga to‘g‘ri keladi (5-jadval).

Moliyaviy jihatdan, O‘zbekiston bozorida natriy sulfidining 1 kg narxi 15 000 so‘m bo‘lib, 1 tonnadan olinadigan daromad 15 million so‘mni tashkil etadi. Rejalashtirilgan yillik ishlab chiqarish hajmi 2 000 tonna bo‘lsa, umumiy yillik daromad 30 milliard so‘mga teng. Tannarxi 18,82 milliard so‘mni tashkil etgan holda, sarmoyani qoplash muddati atigi 1,6 yilni tashkil qiladi.

Tadqiqotda olib borilgan izlanishlar asosida vodorod sulfidni qayta ishlash orqali natriy sulfid (Na_2S) olish texnologiyasi yaratish bo‘yicha dolzarb ilmiy-texnikaviy muammolar hal etilishi kuzatildi. Jumladan, kislotali sanoat chiqindilaridan foydali kimyoviy modda olish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, energiya sarfi va xomashyo iste‘molini optimallashtirish, shuningdek, flotatsiya jarayonlari uchun samarali reagent tayyorlash kabi masalalarga ilmiy asosda yechim taklif etildi.

XULOSALAR

1. Muborak gazni qayta ishlash zavodining nordon gazlari asosida vodorod sulfidni utilizatsiya qilish orqali natriy sulfid (Na_2S) olishning ikki bosqichli laboratoriya qurilmasi ishlab chiqildi. NaOH eritmasining konsentratsiyasi, harorat va reaksiya vaqt kabi parametrlarning Na_2S hosildorligiga ta‘siri eksperimental ravishda o‘rganilib, optimal sharoitlar (30% NaOH, 50°C, 60 daqiqa) aniqlandi va Na_2S hosil bo‘lish unumdorligi 75,9% gacha yetdi.
2. Na_2S kristallarining namlik darajasi bug‘latish haroratiga bog‘liqligi aniqlanib, 100–120°C oralig‘ida mahsulotdagi namlik 18% dan 10% gacha kamaygani va kristall Na_2S chiqishi 82% dan 91% gacha oshgani ilmiy asosda isbotlandi.

- Absorbsiya jarayonining kinetikasi $\text{NaHS} \rightarrow \text{Na}_2\text{S}$ o'tish yo'li bilan sintezning to'liq bosqichlari tushuntirildi. 30% li NaOH muhitida $\text{pH} \approx 13-14$ bo'lganda S^{2-} ionlarining dominant fazada to'planishi eksperimental tasdiqlandi.
3. Laboratoriyada olib borilgan tajribalar asosida sanoat darajasidagi ikki bosqichli texnologik sxema ishlab chiqildi va pilot qurilmada muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi.
 4. Sanoat darajasidagi sinovlarda ZPG-3000 markali vakuumli quritgichdan foydalanilib, issiqlik tejamkorligi oshirildi va mahsulot quritish jarayonida energiya sarfi 15–20% ga kamaytirildi. Na_2S sintezi jarayonida kiruvchi issiqlik 1 290 499,2 kJ, chiquvchi issiqlik esa 7 127 912,5 kJ ni tashkil etgani, jarayonning issiqlik samaradorligi 18,1% bo'lgani aniqlanib, tizimning energiya tejovchi ishlash rejimi asoslandi.
 5. NS-14 reagentining flotatsiya jarayonida qo'llanilishi standart sanoat Na_2S bilan taqqoslab baholandi. Mis ajralish darajasi 93,01%, qo'rg'oshin – 92,08%, rux esa konsentratda 11,69% ni tashkil etib, konsentrat sifati yuqoriligi bilan ajralib turgani isbotlandi. SEM va XRD tahlillari orqali sintez qilingan Na_2S kristallarining mikromorfologiyasi va fazaviy tarkibi aniqlanib, 1–3 μm o'lchamdagi zarrachalar va yuqori kristallanish darajasi qayd etildi.
 6. IQ spektrlari orqali Na_2S namunalari Na-S , S-S , O-H va C-S bog'lar mavjudligi isbotlandi. Bu namunalarni gidratlangan shaklda ($\text{Na}_2\text{S} \cdot x\text{H}_2\text{O}$) ekanini tasdiqlab, tozaligini baholash imkonini berdi. NS-14 reagentining mis boyitishdagi samaradorligi, mis konsentratdagi miqdorini 1,87% gacha oshirishga erishilgani bilan ifodalandi (standartda bu ko'rsatkich 1,69%), bu reagentning sifat jihatidan ustunligini tasdiqlaydi.
 7. Pilot qurilmada H_2S ni utilizatsiya qilish natijasida Na_2S ni sanoat sharoitida olish jarayonida optimal sharoitlar aniqlandi: 1,3–1,5 atm bosim, 30–120°C harorat, 1–1,5 soat bug'latish va 30% li NaOH va $\text{Ca}(\text{OH})_2$ eritmalari qo'llanilishi.
 8. Muborak gazni qayta ishlash zavodida mavjud nordon gaz oqimlarida mazkur tavsiya etilgan texnologiyani amaliyotda joriy qilish uchun pilot qurilma ishlab chiqildi. Vodород sulfidni NaOH muhitida yutish va natriy sulfid olish uchun tajriba-sanoat sinovi o'tkazildi va texnologiya amaliyotga joriy etishga tavsiya etildi. Sanoat uskunalari (absorbsiya kolonnasi, bug'latgich, vakuum quritgich va nazorat-o'lchov tizimlari) olib kelinib, zavod miqyosida o'rnatildi va ishga tushirildi.
 9. Tadqiqot yakunida, ishlab chiqilgan texnologiya bilan yiliga 2 000 tonna Na_2S ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, bu orqali \$300,000–\$2 million miqdorida importni qisqartirish va valyuta tejash imkoniyati yaratilishi ilmiy asosda isbotlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 02/30.12.2019.К/Т.35.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ**

ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

ПУЛАТОВ ГОЛИБЖОН МУРОДОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ СУЛЬФИДА НАТРИЯ
ПУТЕМ УТИЛИЗАЦИИ СЕРОВОДОРОДА ИЗ КИСЛЫХ ГАЗОВ
ГАЗОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕГО ЗАВОДА**

02.00.08 —Химия и технология нефти и газа

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)

Ташкент–2025

Тема диссертации доктора (PhD) философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2025.3.PhD/Г5819

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии АН РУз.
Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета по адресу www.ionx.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz

Научный руководитель:

Юсупов Фарход Махкамович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Адизов Бобиржон Замирович
доктор технических наук, профессор

Тураев Толиб Бозорович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «27» ноября 2025 года в «15⁰⁰» часов на заседании Научного совета 02/30.12.2019.К/Т.35.01 при Институте общей и неорганической химии по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77а, Тел.: (99871)2625660; факс: (99871)2627990; e-mail ionxanuz@mail.ru

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии за №20, с которой можно ознакомиться в информационно ресурсном центре (100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77а, тел: (+99871) 262-56-60).

Автореферат диссертации разослан «14» ноября 2025 года.
(реестр протокола рассылки №20 от «14» ноября 2025 года.)



Б.С. Закиров

Председатель научного совета по
присуждению ученой степени, д.х.н., проф.

Д.С. Салиханова

Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., проф.

И.Д. Эшметов

Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире проблема переработки кислых газов (в основном H_2S и CO_2), выделяемых газоперерабатывающими предприятиями, является одной из актуальных задач, связанных с экологической безопасностью, изменением климата и рациональным использованием ресурсов. В то же время технология получения сульфида натрия (Na_2S) в результате переработки сероводорода (H_2S) становится все более актуальным направлением. Процесс прямого синтеза Na_2S из H_2S позволяет создавать энергосберегающие, малоотходные и экологически безопасные технологии. Разработка технологий переработки этих вредных газов и получения из них полезных продуктов имеет большое научное и практическое значение.

В мире для повышения экологической безопасности и достижения экономической эффективности за счет утилизации сероводорода разрабатываются новые каталитические и абсорбционные методы переработки H_2S , проводятся фундаментальные и прикладные научные исследования по совершенствованию технологии получения Na_2S из кислых газов. В связи с этим разработка технологии получения сульфида натрия (Na_2S) не только решает существующие экологические проблемы в этом направлении, но и повышает экономическую эффективность промышленности за счет производства нового продукта. Особое внимание уделяется обоснованию особенностей расширения технологических возможностей и экономического укрепления добычи и переработки минерального сырья с использованием сульфида натрия, особенно в качестве эффективного флотореагента при обогащении руд.

В Республике также достигаются последовательные научно-практические результаты по утилизации отходов нефтегазовой и химической промышленности, обеспечению экологической безопасности и развитию производства импортозамещающей продукции. В третьем направлении Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах определены важные задачи, направленные на «ускоренное развитие высокотехнологичных перерабатывающих отраслей, прежде всего по производству готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на базе глубокой переработки местного сырья и крупных промышленных отходов»¹ В связи с этим, развитие местной промышленности и повышение экономической устойчивости за счет создания технологий эффективной утилизации сероводорода из кислых газов, образующихся на газоперерабатывающих заводах, рассматривается как актуальная научная задача. Разработка технологии получения сульфида натрия путем утилизации сероводорода и его применение в процессах обогащения руд имеет важное практическое значение.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах»

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», № ПП-3236 от 23 августа 2017 года «О программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № ПП-307 от 7 июля 2022 года «Об организационных мерах по реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

